

VARIATIV YONDASHIVNING BO‘LAJAK XORIJIY TIL O‘QITUVCHISIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNING RIVOJLANTIRISHDAGI O‘RNI

Akramov Shuxrat Raxmatovich

Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogik universiteti dotsenti,
Email:interfutbolful@gmail.com, <https://orcid.org/0009-0000-2752-5075>

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18975735>

Annotatsiya. Mazkur tezisda muallif bo‘ljak xorijiy til o‘qituvchisining metodik tayorgarligi va kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishda variativ yondashuvning asosiy g‘oyalari roli, jihatlari va ahamiyati chuqur tahlil qilingan. Variativ yondashuvning asosiy jihatlari **sifatida ta’limni individuallashtirish, turli metod va texnologiyalardan foydalanish**, loyihaviy metodologiya, keys metodi, o‘yin texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi faol o‘qitish usullarini joriy etish orqali materialni chuqurroq o‘zlashtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ko‘maklashish, **kasbiy kompetensiyani rivojlantirish** kabilar aniqlandi va keng yoritildi. Ushbu va shuningdek talabaga yonaltirganlik, moslashuvchanlik va individuallashtirish kabi jihatlar variativ yondashuvni samarali amalga oshirish va ta’lim sifatini oshirishdagi muhim ahamiyati tahlil qilindi.

Kalit so‘zlar: variativ yondashuv, kasbiy kompetensiya, chet til, xorijiy til, texnologiya, metod, talaba.

Abstract. In this article, the author deeply analyzed the role, aspects and significance of the main ideas of the differentiated approach in the development of methodological readiness and professional competencies of future foreign language teachers. The main aspects of the differentiated approach were identified and widely covered as individualization of education, the use of various methods and technologies, the introduction of active teaching methods such as project methodology, case method, game technologies and information and communication technologies to promote deeper mastery of the material and the development of critical thinking, and the development of professional competence. These and other aspects such as student orientation, flexibility and individualization were analyzed for their important role in the effective implementation of the differentiated approach and improving the quality of education.

Keywords: differentiated approach, professional competence, foreign language, foreign language, technology, method, student.

Аннотация. В данном тезисе автор глубоко проанализировал роль, аспекты и значение основных идей вариативного подхода в развитии методической готовности и профессиональных компетенций будущих преподавателей иностранных языков. Были подробно рассмотрены основные аспекты вариационного подхода, такие как индивидуализация обучения, использование различных методов и технологий, внедрение активных методов обучения, таких как проектная методология, кейс-методология, игровые технологии и информационно-коммуникационные технологии, для содействия более глубокому усвоению материала и развитию критического мышления, а также развитию профессиональной компетентности. Эти и другие аспекты, такие как акцент учебного процесса на студента, гибкость и индивидуализация, были проанализированы с точки зрения их важной роли в эффективной реализации вариативного подхода и повышении качества образования.

Ключевые слова: вариативный подход, компетенция, иностранный язык, технология, метод, студент.

Bo‘ljak chet til o‘qituvchilarining metodik tayorgarligida variativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular turli xil talabalar bilan samarali ishlashni o‘rganib, turli pedagogik vaziyatlarga mos usullarni tanlay olish qobiliyatini shakllantiradilar.

Bo‘ljak xorijiy til o‘qituvchilarini metodik tayyorlashda variativ yondashuv bu talabalarning individual xususiyatlari va pedagogik faoliyatiga tayorligini hisobga olib, ta’lim jarayonida turli usullar, shakllar va texnologiyalardan foydalanishga yo‘naltirilgan strategiyadir. Ushbu yondashuv bo‘ljak chet til o‘qituvchisining ijodiy shaxsini rivojlantirishga, uning moslashuvchanligi hamda kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi.

Variativ yondashuvning asosiy g‘oyalari quyidagilardan iborat:

1. O‘qitish shakllari va usullarining xilma-xilligi ta’lim jarayonida turli pedagogik metod va texnologiyalardan foydalanish.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

2. O‘quv jarayonini individuallashtirish har bir talabani individual ehtiyojlari va qobiliyatlariga mos ravishda ta’limni tashkil etish.
3. Turli xil idrok va o‘rganish uslublarini hisobga olish talabalarning turli o‘rganish uslublarini e’tiborga olib, ularga mos usullarni qo‘llash.
4. Ta’lim jarayonini tashkil etishda moslashuvchanlik ta’lim shakllari va metodlarini talabalarning ehtiyojlari va sharoitlariga moslashtirish.
5. Talabalarning mustaqilligi va ijodkorligini rag‘batlantirish hamda talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuv ko‘nikmalarini rivojlantirish.

Bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining metodik tayorgarligida variativ yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi, chunki ular turli xil talabalar bilan samarali ishlashni o‘rganib, turli pedagogik vaziyatlarga mos usullarni tanlay olish qobiliyatini shakllantiradilar.

Bo‘lajak chet tili o‘qituvchilarini metodik tayyorlashda variativ yondashuv bu talabalarning individual xususiyatlari va pedagogik faoliyatiga tayyorligini hisobga olib, ta’lim jarayonida turli usullar, shakllar va texnologiyalardan foydalanishga yo‘naltirilgan strategiyadir. Ushbu yondashuv bo‘lajak chet til o‘qituvchisining ijodiy shaxsini rivojlantirishga, uning moslashuvchanligi hamda kasbiy malakasini oshirishga xizmat qiladi [1: 47].

Variativ yondashuvning asosiy jihatlari quyidagilardan iborat:

1. **Ta’limni individuallashtirish**, talabalarning shaxsiy qiziqishlari, qobiliyatlari va ehtiyojlarini hisobga olgan holda shaxsiylashtirilgan ta’lim trayektoriyalarini yaratishga imkon berish.

2. **Turli metod va texnologiyalardan foydalanish** ya’ni loyihaviy metodologiya, keys metodi, o‘yin texnologiyalari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari kabi faol o‘qitish usullarini joriy etish orqali materialni chuqurroq o‘zlashtirish va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga ko‘maklashish.

3. **Kasbiy kompetensiyani rivojlantirish** ya’ni amaliy faoliyat, pedagogik amaliyot va mulohaza yuritish orqali bo‘lajak o‘qituvchilar o‘qitishda turli yondashuvlarni qo‘llashni o‘rganib, o‘z kasbiy shaxsini rivojlantirishga erishadilar. Ushbu jihatlar variativ yondashuvni samarali amalga oshirish va ta’lim sifatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O.A. Kocherigina variativ yondoshuvni ko‘p qirrali hodisa sifatida tahlil qiladi va shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim hamda bo‘lajak o‘qituvchining ijodiy individualligini rivojlantirish muhimligini ta’kidlaydi. N.V. Pasyukova bo‘lajak chet til o‘qituvchilarini metodik tayyorlash tizimida faol o‘qitish usullaridan foydalanishni chuqur tahlil qiladi hamda kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda loyiha metodologiyasi va keys uslubining ahamiyatiga e’tibor qaratadi.

E.N.Solovyova bo‘lajak chet til o‘qituvchilarining metodik tayorgarligida variativ yondashuvni ilgari suradi, bu esa kasbiy kompetensiyani rivojlantirishda turli uslub va texnologiyalardan samarali foydalanishni nazarda tutadi. N. Tarasyuk bo‘lajak chet til o‘qituvchisining kasbiy tayorgarligini individuallashtirish texnologiyalarini o‘rganib, talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish va moslashtirilgan o‘qitish usullarini qo‘llashning muhimligini ta’kidlaydi.

Zamonaviy til ta’limi jarayoni o‘zgaruvchan ijtimoiy talablar, texnologik rivojlanish va talabalarning individuallashtirilgan ehtiyojlari bilan bevosita bog‘liq holda takomillashib bormoqda. Bunday murakkab va dinamik muhitda ingliz tilini samarali o‘qitish uchun an’anaviy yondashuvlar yetarli bo‘lmay, moslashuvchan va holatga qarab turlicha metodik yondashuvlarni qo‘llash zarurati tug‘ilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, variativ yondashuv til o‘rgatishning yangi paradigmasi sifatida ajralib turadi [2:80].

Variativ yondashuv - bu ingliz tilini o‘qitishda metodik, didaktik va texnologik vositalarni kontekst, maqsad, talabning individual o‘ziga xosligi va o‘quv muhitiga moslashtirib tanlash tamoyiliga asoslanadi. Mazkur yondashuv o‘qituvchiga turli o‘qitish metodlari (kommunikativ, kognitiv, integrativ, reflektiv, texnologik), dars formatlari (an’anaviy, onlayn, aralash) va ta’lim vositalarini (multimedia, platformalar, vizual materiallar) ijodiy uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

Variativ yondashuv orqali til o‘rganish jarayoni:

- talabaga yo‘naltirilgan (*learner-centered*),
- kontekstual va madaniy jihatdan moslashtirilgan,
- kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan,
- tanqidiy va ijodiy fikrlashni rag‘batlantiruvchi tarzda tashkil qilinadi.

Ushbu yondashuvning afzalligi shundaki, u universallikni emas, moslashuvchanlikni, standartlashni emas, individuallashtirishni nazarda tutadi. Aynan shu jihatlari bilan variativ yondashuv ingliz tilini o‘qitish metodikasida innovatsion va samarador yondashuv sifatida e’tirof etilmoqda.

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral

U.A.Jabbarov o‘z tadqiqotlarida ingliz tilini o‘qitish metodikasi bo‘yicha xalqaro tajribalarni o‘rganish va milliy ta‘lim tizimiga moslashtirish zarurligini ta‘kidlaydi. Unga ko‘ra, xorijiy davlatlarda keng qo‘llanilayotgan kommunikativ, CLIL, task-based learning, blended learning kabi metodlar talabaniq metodik bilimni praktik ko‘nikmaga aylantirishga xizmat qiladi. Variativ yondashuv aynan shunday ilg‘or xorijiy yondashuvlarni tanlab, o‘ziga mos holatda qo‘llashni o‘rgatadi. Bu esa talabalarning kasbiy-metodik tafakkurini global standartlar bilan uyg‘unlashtirish imkonini beradi.

G.T.Maxkamova fikricha, ingliz tilini o‘rgatishda madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish – bu faqat til emas, balki xalqaro kompetensiyalarni rivojlantirishdir. O‘qituvchi metodik tayyorgarligi jarayonida talabalarga turli madaniyat vakillari bilan muloqotda bo‘lish qoidalari, pragmatik elementlar va ijtimoiy-nutqiy holatlar asosida dars berishni o‘rgatishi zarur. Variativ yondashuvda o‘qituvchi kommunikatsiya usullarini madaniy kontekstga qarab moslashtiradi, bu esa Maxkamova ta‘kidlagan madaniyatlararo kompetensiyani rivojlantirishga xizmat qiladi [3:45].

A.Nurmanov til o‘rganishni kognitiv jarayon sifatida ko‘rib, o‘qituvchining metodik tayyorgarligida bilish faoliyati, tafakkur va til birliklarining uzviyligini muhim deb hisoblaydi. Unga ko‘ra, o‘qituvchi tilni faqat grammatika va lug‘at orqali emas, balki fikrlash, tushunish, tushuntirish va ijod qilish faoliyati orqali o‘rgatadi. Variativ yondashuv kognitiv yondashuvni qo‘llab, talabaniq bilish usullariga qarab metodlarni moslashtirish imkonini beradi: kimdadir vizual materiallar, boshqasida muammoli topshiriqlar samaraliroq bo‘ladi.

F.M.Rashidova CEFR (Umumiyevropa til kompetensiyalari doirasi) asosida o‘qituvchining dars berish ko‘nikmalari haqida so‘z yuritarkan, o‘qituvchining metodik tayyorgarligi CEFR darajalariga mos ravishda nutq kompetensiyalarini rejalashtirish, baholash va rivojlantirish bilan belgilanadi, deydi. CEFR talablari metodik yondashuvlarning aniq darajaviy ifodasini ta‘minlaydi. Variativ yondashuv bu yerda CEFR darajalariga asoslanib metodlar, topshiriqlar va baholash mezonlarini tanlash orqali talabaniq o‘qituvchilik salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu olimlar tomonidan ilgari surilgan g‘oyalar dissertatsiya mavzusining konseptual asosini yanada boyitadi. U.Jabbarovning xalqaro tajribalarni o‘zlashtirish tamoyili, G.T. Maxkamovaning madaniyatlararo muloqotni metodik jarayonga tatbiq etish g‘oyasi, A.Nurmanovning kognitiv strategiyalarni faol o‘rgatishga urg‘u berishi hamda F.M. Rashidovning CEFR asosidagi metodik rejalashtirish tizimi variativ yondashuv orqali amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan metodik moslashuvchanlikning asosiy yo‘nalishlarini belgilab beradi. Bu esa dissertatsiyaning dolzarbligini va nazariy asosini mustahkamlaydi. Hozirgi vaqtda o‘zgarigan ijtimoiy sharoitlarga mos keladigan ta‘lim tizimini rivojlantirish va faoliyat ko‘rsatishning barcha darajalarida optimal tashkil etish va boshqarish bilan bog‘liq ta‘lim muammolarining yechimlarini izlash davom etmoqda. Ayrim fazilatlar zamonaviy ta‘lim tizimiga xosdir. B.S.Gershunskiy ularga moslashuvchanlik, uzluksizlik, dinamizm, o‘zgaruvchanlik, barqarorlik, bashoratlilik, yaxlitlikni tavsiflaydi [4:23].

Xulosa o‘rnida ta‘kidlashimiz mumkinki, variativ yondashuv asnosida yotadigan erkinlik, tanlash huquqi, diversifikatsiya g‘oyalariga asoslangan o‘zgaruvchan ta‘lim instituti ijtimoiylashtiruvchi vazifalarni bajaradi. Bunday yondashuvni amaliyotga tatbiq etgan oliy ta‘lim tashkiloti talaba shaxsining o‘z o‘zini anglashi va umumiy madaniy rivojlanishi uchun yetarlicha shart-sharoit yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi. Variativ yondashuv tamoyillariga muvofiq “Ta‘lim to‘g‘risida”gi qonunda o‘quvchi, talabaniq moyilligi va ehtiyojlarini hisobga olgan holda, ta‘lim faoliyatini amalga oshiradigan tashkilotni, ta‘lim yo‘nalishi, ta‘lim olish va o‘qitish shakllarini tanlash erkinligi ta‘minlanadi. Bundan tashqari, o‘qituvchiga o‘quvchi talabalarga ta‘lim berishda amaliy vositalarni tanlash erkinligining berilishi ham bunga misol bo‘la oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Кочергина О.А. Вариативный подход в профессиональной подготовке современного учителя // Вестник педагогических идей. – 2020. – № 3. – С. 45-52.
2. Пасынкова Н.В. Использование активных методов обучения в системе методической подготовки будущих учителей иностранного языка // Вестник науки и образования. – 2019. – № 4. – С. 78-85
3. Patton, M. Q. (2014). Qualitative research & evaluation methods: Integrating theory and practice. Sage Publications.
4. Woodrofe, T. (2016). Creating the ideal classroom environment to ensure success for indigenous students. In K. Ikin (Ed.), Changes and challenges: The power of education to build the

“Ilmiy tadqiqotlarni amaliyotga joriy qilishning muammo va yechimlari” mavzusidagi onlayn xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallar to‘plami. NamDU - 2026-yil 20-21-fevral
world to which we aspire (1st ed., pp. 86–91). Sage Resarch Methods. Australian College of Educators.